

# ZAMONAVIY PSIXOLOGIYANING PEDAGOGIKA BILAN UZVIY BOG'LIQLIGI

<sup>1</sup>Yo'ldoshyev Sardorbek Asliddin o'g'li-O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali, o'qituvchi

[sardorbekyoldoshyev@gmail.com](mailto:sardorbekyoldoshyev@gmail.com)

<sup>2</sup>Bosimova Madina Zafar qizi-Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali, Yoshlar psixologiyasi yo'nalishi, 220-20 guruh talabasi

**Anotatsiya:** Ushbu maqola pedagogik psixologiyani maekanligi, qaysi davrda tashkil topganligi, pedagogika va psixologiyaning qay yo'sinda bog'liqligi va bu sohada olib borilayotgan ishlar haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** psixologik yo'nalishlar, ta'lif jarayoni, psixologik asoslar, pedagogik bilimlar, pedagogik psixologiya.

Pedagogik psixologiya - ta'lif va tarbiya muammolarini tadqiq qiladigan psixologiya sohasi. U shaxsning maqsadga muvofiq rivojlanishini, bilish faoliyatining va insonda ijtimoiy ijobiy sifatlarni tarbiyalashning psixologik muammolarini o'rghanadi. Pedagogik psixologiyaning maqsadi shart-sharoit va boshqa psixologik omillardan kelib chiqqan holda o'qitishning oqilona rivojlantiruvchi ta'sirini kuchaytirish. Pedagogik psixologiya XIX asrning 2-yarmida vujudga kelgan. Eksperimental psixologiya tadqiqotchilari pedagogik psixologiya rivojiga katta hissa qo'shganlar. Pedagogik psixologiyaning fan sifatida taraqqiy etishida o'sha davrda yuzaga kelgan psixologik yo'nalishlar ham turki berdi. Bixevoiristik (qarang Bixevoirizm) psixologiya yo'nalishi tarbiyachi va o'quvchiga tashqi muhitning ta'sirini Pedagogik psixologiya uchun asos qilib oladi. Pedagogik psixologiya umumiyligi va bolalar psixologiyasi, shuningdek, pedagogika bilan uzviy bog'liq. Pedagogik psixologiya, asosan, ta'lif psixologiyasi va tarbiya psixologiyasiga bo'linadi.[6]

Ta’lim psixologiyasida o‘quv jarayonida xotira, tafakkur, nutq, xayol, irodaning roli, shuningdek, o‘quvchilarning individual xususiyatlari (temperamenti, harakteri, qiziqishlari), o‘quv predmetlarining o‘ziga xos tomonlari, ta’lim jarayonini boshqarishning psixologik tamoyillari va boshqa o‘rganiladi. Hozirgi zamon ta’lim psixologiyasida o‘quvchilarga doimiy yangilanib turadigan axborotlarni mustaqil o‘zlashtirish imkoniyatini beradigan, ilmiy-texnika yangiliklaridan orqada qolmaslikni ta’minlaydigan tafakkur sifatlarini o‘rganish muhim masaladir. Tarbiya psixologiyasining asosiy vazifasi — mактабдаги tarbiyaviy ishlar jarayonida shaxsning shakllanishi masalasini ishlab chiqish. Unda shaxsning axloqiy sifatlarining shakllanishiga alohida ahamiyat beriladi. Pedagogik psixologiya tadqiqotlari o‘quv materiali mazmunini tanlash, o‘quv dasturlari, darsliklar tuzish, ta’limning har xil bosqichlarida o‘qitish metodlari tizimini tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega.[5]

Ushbu maqolani yoritishda adabiyotlar tahlili va metodologiyasida fikirlarshundan iboratki, ta’lim-tarbiyaning shaxsni kamol toptirish ishiga bog‘liqligi milliy g‘oyani shakllantiruvchi, takomillashtiruvchi va uni ommaga yetkazuvchi kuchlarga bog‘liqdir. Pedagogik – psixologiya fani ham jahon fani taraqqiyoti hamda va uning takomillashib boorish jarayonini, fanga kirib kelishi kutilgan yangiliklarni yanada aks ettiradi, albatta. Bu asosiy vazifa sifatida ilk bor qonuniy asoslarga ega bo‘lmoqda va pedagogic psixologiya fani oldiga muhim nazariy vazifalarni hal qilish qo‘yilmoqda:

- 1) pedagogik psixologiyaning muhim vazifalaridan biri ta’lim jarayonini yanada takomillashtirish, faollashtirishning psixologik asoslarini ishlab chiqish;
- 2) ta’lim – tarbiya jarayonida turli yoshdagi bolalarning aql-idrokiga, irodasiga, uni shaxs sifatida shakllantirishga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish;
- 3) o‘quvchilar shaxsni tarkib topishi jarayonini, bu jarayonning umumiyligini qonuniyatlarini va individual farqlarni, turli tarbiyaviy tadbirlarning o‘quvchilarga ko‘rsatadigan ta’sirini o‘rganish;

- 4) ta'lim va tarbiya jarayoni bir-biriga bog'liqdir, bu jarayonda aqliy qobiliyatlarni, axloqiy sifatlarni, shaxsni hissiy va irodaviy sifatlarini shakllantirishning maksimal rivojlanishi shart-sharoitlarini aniqlash;
- 5) mustaqil bilim olish, materialni chuqur yoki yetkazishning psixologik masalalarini ishlab chiqish;
- 6) bilish faoliyatini o'zaro tashkil qilabilish shart-sharoitlarini aniqlash;
- 7) o'z-o'zini tarbiyalashning psixologik asoslarni aniqlash;
- 8) o'qituvchi shaxsni va o'qituvchi shaxsini xususiyatlarini, milliy o'qituvchining sifatlarini aniqlash;
- 9) pedagogik bilimlar, ko'nikma va malaka, qobiliyatlarning tarkib topishi hamda taraqqiyotining psixologik jarayonlarini aniqlash;
- 10) o'z-o'zini tarbiyalash, milliy g'urur va vatanparvarlik jarayoni uning psixologik muammolarini nazariy jihatdan asoslab berishdan iboratdir;
- 11) shuningdek jahon tajribalari bilan birga, milliy xususiyatlarimiz, undagi eng ilg'or tomonlar, muhimi, pedagogic tarbiyanuvchilar, o'quvchilar, talabalar bilan imkonni boricha ko'proq muloqotda bo'lish, o'quvchi shaxsining barcha xususiyatlarini hisobga olib bilim va tarbiya berish, ya'ni yagona pedagogic jarayonni ta'minlash, masalalari ham nazarda tutiladi;
- 12) pedagogik psixologiyaning eng asosiy vazifalaridan biri o'zlashtirishning sifat darajasini aniqlash usullarini ishlab chiqishdan iborat[1].

Pedagogik psixologiyaning amaliy vazifasi esa yoshlarni o'zlashtirishning psixologik shart-sharoitlari, tarbiyaning psixologik masalalari, bolaga ta'lim-tarbiya berishda ularni yoshlik va individual xususiyatlarini hisobga olish, yoshlarda bilim, ko'nikma va malakalarini shakllanishi, mustaqil fikrlashga o'rgatish, ilmiy tushunchalar hosil qilish, o'z ustida ishlash, o'z-o'zini tarbiyalash, yosh o'qituvchilarni psixologik faoliyatga mehr-muhabbatini shakllantirish psixologiya fanining yutuqlarini, psixologik bilimlarni keng jamoatchilik e'tiboriga havola qilinishi, ota-onalar, tarbiyachi va o'qituvchilarni bulardan bahramand qilishdan iboratdir. Amaliy vazifalar radio va teleko'rsatuvlarda, jurnallarda, ma'ruza va

maxsus ko'rsatuvlar orqali chiqish, mahalla, maktab va ota – onalar bilan suhbatlashish orqali amalga oshiriladi[4].

Biz shu narsaga erishishimiz kerakki, keng jamoatchilik bola ruhiy taraqqiyotiga doyir psixologik bilimlardan bahramand bo'lsin. Ana shundagina biz yoshlarga haqiqiy ta'lim-tarbiya bera olamiz va uni muvaffaqiyatli amalga oshiramiz. Pedagogik psixologiya o'z predmetining mazmuniga qarab umumiyligi psixologiyada amal qiladigan ko'pgina metodlardan foydalanadi. Chunki zarur bo'lgan dalillarni qidirish, ularni sodir bo'lish sabablarini aniqlash va isbotlash turli xil metodlar vositasida bajariladi. Qaysi metoddan foydalanishdan qa'ti nazar, bu metodlar faqat xususiy ilmiy tadqiqot ishlari uchungina emas, balki amaliy ta'lim-tarbiya maqsadlarida bolani chuqurroq o'rganishni tashkil qilish uchun muhimdir.[2]

Ta'lim-tarbiyaishlarini to'g'ri tashkil etish uchun pedagogic psixologiyada qo'llanadigan tadqiqot metodlari o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda maqsadga muvofiq va eng samarali metodlarni tanlashga asos bo'ladigan o'quvchilar shaxsining o'ziga xosligini yaxshi bilish lozim. Pedagogik psixologiyada qo'llanadigan metodlar ham psixologiya fanining tamoyillari va usullariga qo'yilgan talablarga rioya qilish maqsadga muvofiqdir.

1. O'rganish lozim bo'lgan har bir jarayon, holat va xususiyatlarni bir- biriga bog'lab tekshirish lozim. Har bir o'rganiladigan psixik hodisalarni nevrofiziologik asoslardan yoki xotirani diqqatdan, idrokni tafakkurdan ajratib o'rganish yaramaydi

2. Tekshirilayotgan psixik hodisalarni rivojlanish qonuniyatlarini bilmasdan turib uni har tomonlama o'rganish mumkin emas. Shuningdek, turli yoshdagagi bolalarning psixik rivojlanish xususiyatlarini bilmasdan turib o'rganilayotgan yosh davrning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirish va tavsifnomasi berish mumkin emas.[3]

Xulosa o‘rnida shini aytish mumkinki, tekshirish jarayonida kishining butun psixikasida, ongida aks etadigan jamiyatning moddiy negizi undagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan birgalikda o‘rganiladi. Ta‘lim-tarbiya jarayonida psixik hodisalarining miqdor o‘zgarishlarini sifat o‘zgarishlarga o‘tishi va bir sifat holatining ikkinchi sifat holatiga o‘tishini kuzatib borish lozim. Masalan: o‘quvchi psixikasining taraqqiy etishini o‘rganib «ko‘rib, bilim olish, tajribalar to‘plash jarayonida o‘quvchining bilish qobiliyatini, ya‘ni xotira, tafakkur, fikr yuritishdagi sifat o‘zgarishini bilib olsa bo‘ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. M.Toxtaxodjayevaning umumiyligi tahriri ostida. Pedagogika. Darslik. T.: O‘zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
2. Xasanboyev J., To‘raqulov X., Xaydarov M., Xasanboyeva O. Pedagogika fanidan izoxli lug‘at. – T., 2008.
- 3.Yo‘ldoshyev, S., & Sultonaliyeva, G. (2023). SUITSIDAL HOLAT VA UNING KELIB CHIQISH SABABLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).
- 4.Usarovna, M. R., & Ibrahimovna, S. Z. (2019). Yuldoshev Sardor Asliddin o‘gli, Akhmedova Shokhida Mukhtarovna. THE EDUCATION OF TALENTED STUDENTS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)-ISSN, 2455-3662.
- 5.Asliddin o‘g, Y. L. S. (2022). PSIXOLOGIK ZO ‘RAVONLIK VA KIBERBULLING. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 62-66.
6. Zakirovich, Djumanov Sherzali. "TALABALARDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI." *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research* (2022): 543-545.
7. To‘lqinovich, A. G. (2022). IJTIMOIY TARMOQLARNING YOSHLAR ONGI VA MA’NAVIYATIGA PSIXOLOGIK TA’SIRI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 561-566.

8. Arakulov, G. (2023). АГРЕССИЯ-ЎСМИРЛАРДА ТАЖОВУЗКОРЛИК ШАКЛЛАНИШИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ФЕНОМЕН СИФАТИДА. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).
9. Arakulov, G. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA DIQQAT MUHIM PSIXIK FENOMEN SIFATIDA. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).
10. Абдурасулов, Ф. П., Аракулов, Г. Т., Эркинова, М. Т. К., & Мирзахматов, А. Х. У. (2022). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСТВА В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, (Special Issue 2), 277-282.
11. Sunatullaevna, K. A., & Qudratovna, N. F. (2022). INTERFAOL METODLARNI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 521-525.
12. Norbekova, B. (2021). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI. *Журнал дошкольного образования*, 3(3).
13. Муратович М. Е., Курбон О., Шамсиевна А. М. (2022). Некоторые особенности формирования математических представлений у дошкольников в процессе ознакомления их с размерами и формой предметов.
14. Устин, П., Турсунқулова, Ф., & Санаев, А. (2022). Советы психологов, как сделать школьника более ответственным в учебе. *Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar*, 1(1), 430-433.
15. Rahmatullayeva, M., & Ahmedova, L. (2023). GO'DAKLIK DAVRI TO'G'RISIDA PEDAGOGIK ILMIY DUNYOQARASHNING SHAKLLANISHI. *Журнал Педагогики и психологии в современном*

образовании, 3(1). извлечено от

<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8239>

16.Rahmatullayeva, M., Karakulova, U., & Xaydarqulov, H. . (2023). O'QITUVCHI VA TALABALAR O'Rtasida SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8240>

17.Rahmatullayeva, M., & Ahmedova, L. (2023). GO'DAKLIK DAVRI TO'G'RISIDA PEDAGOGIK ILMIY DUNYOQARASHNING SHAKLLANISHI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от

<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8239>

19.Karakulova, U., Rashidova, G., & Raxmatullayeva, M. (2023). DEVIANT XULQ-ATVOR RIVOJLANISHIDA OILAVIY MUNOSABATLARNING TA'SIRI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8236>

20.Rahmatullayeva, M., Umida, K., & Gulnoza, R. (2023). BOSHQARUV PSIXOLOGIYASI VA BU BORADAGI ILMIY YONDASHUVLAR. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7728>

21.Rahmatullayeva, M., Rashidova, G., & Karakulova, U. (2023). XXI ASRDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7721>